Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

TARJIMANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TEXNOLOGIYALARI

03 October 2026

UDK 81’25

ERIX KESTNERNING „EMIL UND DETEKTIVE“ (“EMIL VA IZQUVARLAR”) QISSASI MISOLIDA FRAZEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISHDAGI O‘ZIGA XOS MUAMMOLAR

Dilshoda Rustamova*

✉ dilshodarustamova2004@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis yozuvchisi Erix Kestnerning «Emil und Detektive» («Emil va izquvarlar») nomli bolalar qissasida qo‘llangan frazeologik birliklarni nemis tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va uslubiy muammolar tahlil qilindi. Mazkur maqolada frazeologik birliklarning to‘liq, qisman va nol muqobillik holatlari hamda ularni tarjima qilishda qo‘llaniladigan usullar yoritildi. Kestner asaridagi misollar tahlili asosida frazeologizmlarni tarjima qilishda mazmun, obraz, uslub va milliy xususiyatlarni uyg‘un holda saqlash zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar

frazeologizm, frazeologik birlik, frazeologik muqobillik, to‘liq muqobillik, qisman muqobillik, nol muqobillik, frazeologik tarjima, badiiy tarjima.

DOI: 10.5281/zenodo.23278077

Frazeologizmlar tilning o‘ziga xos va ta’sirchan qatlamini tashkil etib, nutqqa obrazlilik, emotsionallik va uslubiy rang-baranglik baxsh etadi. Ular oddiy so‘z birikmalaridan barqarorligi, ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi, tarkibiy qismlarining bir-biri bilan uzviy bog‘langanligi hamda nutqda tayyor holda takrorlanishi bilan farqlanadi. Shu xususiyatlari tufayli frazeologik birliklarni boshqa tilga o‘girish tarjimondan nafaqat chet tillarini bilishni, balki asar yaratilgan muhit, milliy madaniyat va muallif uslubini chuqur anglashni ham talab etadi.

Frazeologik ma’no muayyan xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va hayot tarzi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgani sababli, uni boshqa tilda aynan ifodalash har doim ham oson kechmaydi. V. Kollerning ta’kidlashicha, frazeologizmlar boshqa tilga tarjima qilish jarayonida eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradigan til birliklaridan biri hisoblanadi. Bunda frazeologik birlikning nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki uning tarkibida mujassam bo‘lgan obraz, uslubiy bo‘yoq va milliy-madaniy mazmun ham muhim ahamiyatga ega [4].

Frazeologik birliklarni qiyosiy o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad asliyat tilidagi frazeologizmga maqsad tilidan mazmun va uslub jihatidan eng yaqin muqobilni aniqlashdan iborat. Shu nuqtayi nazardan frazeologizmlarni tarjima qilishda bir necha asosiy usullardan foydalanish mumkin.

Verner Koller frazeologizmlarni tarjima qilishning bir nechta usullarini ajratadi. Birinchi usul asliyat tilidagi frazeologizmni so‘zma-so‘z tarjima qilish bo‘lib, bunda tarjima qilinayotgan tilda ham ma’nodosh frazeologik birlik hosil bo‘lishi mumkin. Ikkinchi usul mazmunan yaqin bir frazeologizmni boshqa, ma’nodosh frazeologik birlik bilan almashtirishdan iborat. Uchinchi holatda esa tarjima qilinayotgan tilda to‘g‘ridan to‘g‘ri frazeologik muqobil mavjud bo‘lmaganida, asliyatdagi frazeologizm nofrazeologik vositalar orqali ifodalanadi.

Bunda so‘z yoki so‘z birikmasi yordamida mazmunni ochib berish, yangi yasama ifodalardan foydalanish yoki so‘zma-so‘z tarjimadan unumli foydalanish mumkin [3].

Erika Vorbs esa frazeologizmlarni tarjima qilish imkoniyatlarini, avvalo, frazeologik va nofrazeologik muqobillarga ajratadi [5]. Frazeologik muqobillar to‘g‘ridan to‘g‘ri va ma’no jihatidan o‘xshash muqobillarni qamrab olsa, nofrazeologik muqobillar bir so‘zli ifodalar, erkin gaplar hamda barqaror yoki erkin so‘z birikmalari orqali ifodalanadi.

Frazeologizmlarni tarjima qilish masalasini tadqiq etishda to‘liq, qisman va nol muqobillik holatlarini farqlash muhimdir. To‘liq muqobillikda asliyat va tarjima qilinayotgan tildagi frazeologik birliklar mazmun, uslub va boshqa asosiy xususiyatlari jihatidan bir-biriga to‘la mos keladi. Qisman muqobillikda asosiy ma’no saqlangan bo‘lsa-da, bir yoki bir nechta xususiyatda muayyan farq kuzatiladi. Nol muqobillikda esa asliyat tilidagi frazeologizmga tarjima qilinayotgan tilida tayyor frazeologik birlik topilmaydi va uning ma’nosini boshqa tilda asosan lug‘aviy vositalar orqali ifodalashga to‘g‘ri keladi.

Erix Kestner bolalar uchun yaratgan asarlarida bolalarning kundalik nutqiga yaqin, tabiiy, jonli, sodda va ta’sirchan tildan foydalanadi. Yozuvchining uslubida hayotiy voqelik, bolalarga xos qarash va samimiy muloqot uyg‘unlashib ketgan. Ana shu xususiyatlar, ayniqsa, frazeologik birliklardan foydalanishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Kestner frazeologizmlarni shunchaki tayyor til birligi sifatida emas, balki qahramonlarning xarakterini ochish, voqealarni jonlantirish, yumoristik ta’sirni kuchaytirish va matnning emotsional ta’sirchanligini oshirish vositasi sifatida qo‘llaydi.

Erix Kestner yosh kitobxonga yaqin bo‘lgan tabiiy va samimiy nutq muhitini yaratish maqsadida kundalik so‘zlashuvda keng qo‘llaniladigan frazeologizmlardan unumli foydalanadi. Bunday birliklar asar qahramonlarining yoshi, xarakteri va ijtimoiy muhitini ifodalash bilan birga, voqealarning tabiiy kechishini ta’minlaydi. So‘zlashuvga xos frazeologizmlar kattalar, bolalar va hatto asar hikoyachisi nutqida ham uchrab, qahramonlarning individual xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

«Emil und Detektive» qissasidagi frazeologizmlarni nemis va o‘zbek tillari nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilish jarayonida ayniqsa qisman va nol muqobillikka ega birliklarni tarjima qilish bilan bog‘liq muammolar yaqqol ko‘rinadi. Tarjimon bunday holatlarda asliyatdagi ma’noni saqlab qolish bilan birga, o‘zbek kitobxoni uchun tabiiy va tushunarli bo‘lgan ifodani tanlashi lozim. Masalan, *«Nun aber los, sagte Gustav, wenn wir nichts weitermachen als rumstehen, geht uns der Schuft durch die Lappen»* [2] jumlasidagi *«jemandem durch die Lappen gehen»* [1] frazeologizmi nemis tilida *«birovdan qochib qutulish»*, *«qo‘ldan chiqib ketish»* ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida uning ma’nosi *«qo‘ldan chiqarib yubormoq»*, *«qochib qutulmoq»*, *«ko‘z oldidan g‘oyib bo‘lmoq»* kabi ifodalar orqali berilishi mumkin. Shu asosda jumla *«Xo‘sh, endi yuringlar, – dedi Gustav, – agar shunchaki turishdan boshqa ish qilmasak, nomard qo‘limizdan qochib qutuladi»* tarzida tabiiy ifodalanishi mumkin.

Badiiy matnda bir nechta frazeologizmlarning qisqa oraliqda ketma-ket qo‘llanishi ham muhim uslubiy hodisalardan biridir. Bunday holat frazeologizmlarning to‘planishi sifatida namoyon bo‘lib, matnning ta’sirchanligini kuchaytiradi, muayyan voqea yoki holatni alohida ta’kidlaydi va o‘quvchining diqqatini shu nuqtaga qaratadi. E. Kestner asarida ham bunday usuldan samarali foydalanilgan. Masalan, *«nicht von der Pelle gehen»* iborasi xalqona nutq xususiyatini ifodalasa, *«was ausgefressen haben»* so‘zlashuv tiliga xos bo‘lgan frazeologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi: *«Ach, Mensch, da hat einer was ausgefressen und dem gehen wir nicht mehr von der Pelle – erklärte Gustav»* [2]. Ushbu frazeologizmlar nemis tilida *«biror nojo‘ya ish qilib qo‘ymoq»* va *«kimnidir tinch qo‘ymaslik, uning orqasidan qolmaslik»* [1] ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida ularni *«biror ish qilib qo‘ymoq»*, *«boshiga kulfat solmoq»*, *«birining orqasidan qolmaslik»*, *«izma-iz yurmoq»* kabi mazmunan yaqin ifodalar bilan berish mumkin.

E. Kestner asarida so‘zlashuvga xos frazeologizmlar bilan bir qatorda turli ijtimoiy qatlamlar, kasb-kor va muayyan guruhlar nutqiga xos leksik birliklar ham uchraydi. Bunga qaroqchilar nutqiga xos *«hoppnehmen»* so‘zining qo‘llanilishi misol bo‘la oladi. Emil va Gustav o‘rtasidagi *«Sag‘s doch dem Schuppo dort. Der nimmt ihn hopp»* [2] suhbatida *«hoppnehmen»* fe’li odatdagi *«festnehmen»* – *«hibsga olmoq»* [1] ma’nosida qo‘llangan. Biroq bu yerda odatiy fe’l o‘rniga so‘zlashuv va guruh nutqiga xos bo‘lgan boshqa birlikning tanlanishi vaziyatga jonlilik va o‘ziga xos hazilomuzlik bag‘ishlaydi. O‘zbek tiliga tarjima qilishda uni *«qo‘lga olib qo‘ymoq»*,

«qo‘lga tushirmoq» singari so‘zlashuv uslubiga yaqin ifodalar orqali berish mumkin.

E. Kestnerning badiiy uslubida frazeologik o‘xshatishlar ham muhim o‘rin tutadi. Bunday tasviriy ifodalar tilda barqarorlashgan bo‘lib, muayyan holat yoki harakatni obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Yozuvchi ular yordamida qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, harakati va ruhiy holatini yorqin tasvirlaydi. Frazeologik o‘xshatishlarning ayrimlari qisman ko‘chma xususiyatga ega bo‘lgani uchun ularni boshqa tilga tarjima qilishda asliyatdagi obrazni to‘liq saqlash doimo ham mumkin bo‘lavermaydi. Shuning uchun tarjimon vaziyatga mos va tarjima qilinayotgan tilda tabiiy eshitiladigan ifodani tanlashi zarur. Masalan, *«Drucken! Flüsterte Gustav. Die Jungen warfen sich zu Boden und lagen wie Kraut und Rüben durcheinander»* *jumlasidagi «wie Kraut und Rüben durcheinanderliegen»* [2] iborasi «karam va sholg‘om kabi aralash-quralash yotish» [1] ma’nosini anglatadi. O‘zbek tilida bu obrazni *«aralash-quralash yotish»*, *«to‘zg‘ib yotish»* yoki *«to‘da-to‘da bo‘lib yotish»* kabi tasviriy ifodalar orqali berish mumkin.

Qahramonlarning xulq-atvori va ichki holatini yanada ta’sirchan ifodalashda E. Kestner metaforik frazeologizmlarga ham murojaat qiladi. Bunday birliklar muayyan kontekstda kuchli uslubiy vosita vazifasini bajarib, oddiy fikrni obrazli va ta’sirchan tarzda ifodalash imkonini beradi. Metaforik frazeologizmlarda bir tushuncha boshqa bir tushunchaga xos belgi asosida obrazli tarzda ifodalanadi. Masalan, *«Mir stehen die Haare zu Berge, obwohl ja alles längst vorüber ist»* [2] jumlasidagi *«die Haare zu Berge stehen»* frazeologizmi so‘zma-so‘z *«sochlari tog‘dek tikka bo‘lmoq»* ma’nosini bersa-da, aslida *«qattiq qo‘rqmoq»*, *«dahshatdan sochlari tikka bo‘lmoq»* [1] mazmunini ifodalaydi. O‘zbek tilida ham unga mazmun va obraz jihatidan yaqin bo‘lgan *«sochlari tikka bo‘lib ketmoq»* frazeologizmi mavjud. Shu sababli mazkur holatda to‘liq muqobillikka yaqin tarjima usulidan foydalanish mumkin.

E. Kestner frazeologik birliklardan foydalanishda til o‘yinining turli imkoniyatlarini ham keng ishga soladi. U frazeologizmlarni matnga tayyor holda kiritish bilan cheklanib qolmay, ularning tarkibiy qismlarini o‘zgartiradi, ayrim komponentlarni qo‘shadi yoki almashtiradi va shu orqali yangi badiiy ta’sir hosil qiladi. Bunday o‘zgarishlar frazeologizmning an’anaviy shaklini buzgan holda uning asosiy obrazi va ma’nosini saqlab qolishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, frazeologik tarkibga qo‘shimcha so‘zlarning kiritilishi asarga o‘ziga xos hazil va jonlilik bag‘ishlaydi. Bunga *«Hütchen nahm wieder ihr Rad und inspizierte den Bahnhof. Es gab weiter keinen zweiten Blumenstand. Dann fragte sie noch rasch zwei Eisenbahnbeamten Löcher in den Bauch und kam stolz zurück»* [2] misoli yaqqol dalil bo‘la oladi. Undagi *«jemandem ein Loch/Löcher in den Bauch fragen»* frazeologizmi nemis tilida *«kimgadir tinimsiz savollar berib, uni bezor qilmoq»* [1] ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tilida uni *«boshini qotirmoq»*, *«savolga ko‘mib tashlamoq»*, *«ko‘p savol berib bezor qilmoq»* kabi ifodalar orqali berish mumkin.

E. Kestnerning frazeologik til o‘yinida almashtirish usuli ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda muallif frazeologizm tarkibidagi muayyan komponentni boshqa so‘z bilan almashtirib, asliyatdagi barqaror birlikni o‘quvchiga tanish holda saqlaydi, bir vaqtning o‘zida esa kutilmagan ma’no yoki hazilomuz ta’sirni yuzaga keltiradi. Masalan, *«Na ja», erzählte Pony, «die Eltern und Großmutter sitzen nun zu Haus und bohren sich Löcher in den Kopf, was mit dir eigentlich los ist»* [2] jumlasidagi *«bohren»* fe’li frazeologik ma’noni yuzaga keltirishda muhim vazifani bajaradi. Bu yerda u *«biror narsa haqida bosh qotirmoq»*, *«chuqur o‘ylamoq»*, *«tinmay izlanmoq»* [1] kabi ma’nolarni ifodalaydi. O‘zbek tilida ushbu mazmunni «boshi qotib o‘tirmoq», *«miyasini g‘ovlatib o‘tirmoq»*, *«bosh qotirmoq»* kabi frazeologik ifodalar orqali berish mumkin.

Shunday qilib, Erix Kestnerning «Emil va izquvarlar» qissasida qo‘llangan frazeologik birliklarni nemis va o‘zbek tillari nuqtayi nazaridan qiyosiy o‘rganish ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan murakkabliklarni yaqqol namoyon etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklar faqat ikki tildagi lug‘aviy va grammatik farqlar bilan cheklanmaydi, balki frazeologik birliklarning milliy-madaniy mazmuni, uslubiy bo‘yog‘i, obrazliligi va matnda bajaradigan badiiy vazifasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, so‘zlashuv nutqiga xos frazeologizmlar, frazeologik o‘xshatishlar, metaforik ifodalar, frazeologizmlarning to‘planishi va muallif tomonidan ataylab o‘zgartirilgan shakllari tarjimondan alohida e’tibor va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Umuman, frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonida eng maqbul tarjima faqat so‘zlarning ma’nosini ko‘chirish bilan emas, balki asliyatdagi badiiy ta’sirni maqsad tili vositalari yordamida

qayta yaratish bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, E. Kestner asaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilishda ularni til, madaniyat va badiiy kontekstning o‘zaro bog‘liq yaxlit tizimi sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv tarjimada asliyat mazmunining aniqligini ta’minlash bilan birga, asarning milliy ruhi, badiiy jozibasi va muallif uslubini o‘zbek kitobxoniga tabiiy va ta’sirchan tarzda yetkazish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Duden (2002): Duden. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. 2. neu bearbeitete und aktualisierte Auflage, Mannheim: Dudenverlag.

[2] Kästner, Erich (1990): Emil und die Detektive. 135. Auflage, Hamburg: Dressler.

[3] Koller, Werner (1972): Grundprobleme der Übersetzungstheorie. Bern etc.: Francke.

[4] Koller, Werner (1994):”Phraseologismen als Übersetzungsproblem”. In: Sandig, Barbara (ed.): Europhras 92. Tendenzen der Phraseologieforschung. Bochum, Universitätsverlag Brockmeyer: 351–373

[5] Worbs, Erika (1994): Theorie und Praxis der slawisch-deutschen Phraseographie. Mainz: Liber.